



## TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING AYRIM MASALALARI

Sagatova Aziza Abdurasulovna

azizasagatova1@gmail.com

**Annotatsiya:** Mamlakatimizda ta'lismizda tizimini takomillashtirish, malakali kadrlar tayyorlash dolzARB masalalardan biridir. Ushbu maqolada ta'lismizning rivojlantirish va bugungi kundagi ahamiyati haqida fikr va mulohazalar bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** "Ta'lism to'g'risida"gi Qonuni, islohot, o'qitish metodikasi, axborot-kommunikatsiya, kontseptsiya, uzlucksiz ta'lism.

**Abstract:** Improving the education system in our country and training qualified personnel is one of the urgent tasks. This article presents thoughts and opinions about the development of the education system and its importance today.

**Key words:** Law "On Education", reform, teaching methodology, information and communication, concept, continuous education.

Mamlakatimizda yangi tahrirda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Ta'lism to'g'risida"gi Qonuni talablaridan kelib chiqqan holda oliy ta'lism tizimida jahon andozalari talablariga javob beradigan yuqori malakali raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash va ta'lism sifatini tubdan yaxshilashga qaratilgan islohotlarni amalga oshirishni taqozo etmoqda.

Mamlakatimizda ta'lism tizimiga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilmoqda. O'tgan davr mobaynida mamlakatimizda o'sib borayotgan avlodni sog'lom va har tomonlama yetuk voyaga yetkazish, ta'lism-tarbiya jarayoniga samarali ta'lism va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etishga qaratilgan maktabgacha ta'lismning samarali tizimini tashkil etish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Shu bilan birga, olib borilgan tahlil, bolalarning maktabgacha ta'lism bilan qamrovini ta'minlash, maktabgacha ta'lism muassasalarini zamonaviy o'quv-metodik materiallar va badiiy adabiyotlar bilan to'ldirish, sohaga malakali pedagog va boshqaruv kadrlarini jalb qilish masalalarini hal etish zarurligini ko'rsatmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-aprelda "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasi tasdiqlash



to'g'risida"gi PF-5712-sonli Farmoni tasdiqlagan, ushbu farmonda Xalq ta'lifi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasida uzluksiz ta'lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash, o'qitish metodikasini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish hamda zamonaviy axborot-kommunikatsiya loyihalarni joriy etish belgilangan<sup>7</sup>. Mustaqil O'zbekiston Respublikasining kelajagini har tomonlama yetuk o'z kasbining fidoyilar bo'lgan o'qituvchilarsiz tasavvur etish qiyin.

Jamiyat tomonidan o'qituvchi shaxsiga qo'yilayotgan talablar o'z davrida sharq mutafakkirlari hamda g'arb ma'rifatparvarlarining asarlarida o'z aksini topgan.

Muhammad al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobi hamda Abu Rayhon Beruniylar o'qituvchining ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk bo'lishlariga alohida ahamiyat qaratadilar. Ularning fikrlaricha, yaxshi o'qituvchi boshqalardan shu jihat bilan farq qiladi: o'zi ega bo'lgan bilimlarni yoshlarga beminnat o'rgatadi, har bir ishda ularga namuna bo'la oladi.

Abu Ali ibn Sino o'z asarlarida o'qituvchi bolalarga ta'lim berishdek mas'uliyatlari burchni bajarishi zarurligini uqtirar ekan, ularga faoliyatda muvaffaqiyatga erishish garovi bo'lgan quyidagi tavsiyalarni beradi: bolalar bilan muomalada bosiq, jiddiy bo'lish; berilayotgan bilimning talabalar tomonidan o'zlashtirilishiga e'tiborni qaratish; ta'limda turli shakl va metodlardan foydalanish; talabaning xotirasi, bilimlarni egallash qobiliyati, shaxsiy xususiyatlarini bilishi; fanga qiziqtira olishi; berilayotgan bilimlarning eng muhimini ajratib bera olishi; bilimlarni talabalarga tushunarli, uning yoshi, aqliy darajasiga mos ravishda berish; har bir so'zning bolalar hissiyotini uyg'otish darajasida bo'lishiga erishish<sup>8</sup>.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasida malakali (mahoratlari) o'qituvchilarni qo'llab-quvvatlash, ularning tajribalarini ommalashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mahoratlari o'qituvchilarni aniqlash maqsadida turli ko'rik, tanlovlar tashkil etilmoqda. Xususan, "Yil o'qituvchisi" Respublika ko'rik-tanlovi ta'lim

<sup>7</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 08.10.2019 yildagi PF-5847-son. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi.

<sup>8</sup> <https://elib.buxdu.uz/index>.



muassasalarida faoliyat olib borayotgan o'qituvchilarga pedagogik mahoratlarini individaul ravishda namoyish etish imkoniyatini berayotgan bo'lsa, "Yil maktabi" Respublika ko'rik-tanlovi o'qituvchilarga jamoa asosida ta'lismuassasasida qo'lga kiritilayotgan yutuqlarni ommaga ko'rsata olishlari uchun sharoit yaratmoqda.

Respublika miqyosida pedagogik faoliyatda ulkan yutuqlarni qo'lga kirita olgan o'qituvchilar ta'lismohasida quyidagi nufuzli mukofotlari bilan taqdirlanadilar – "Xalq ta'limi a'lochisi", ko'krak nishoni, "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan ta'lismohodimi", "O'zbekiston Respublikasi Xalq o'qituvchisi".

Xalqaro standartlar, zamonaviy ilm-fan yutuqlarini inobatga olgan holda, o'quvdasturlari, darsliklar va o'quv qo'llanmalari, o'qitish uslubiyatini muntazam takomillashtirish, ta'limning barcha bosqichlarida tabiiy-ilmiy va muhandislik fanlarini o'qitishning amaliy tizimini joriy etish, o'qitishning barcha bosqichlarida xorijiy tillarni o'rganishni kengaytirish lozim. Shu bilan birga, pedagog va olimlarning xalqaro mehnat bozori sharoitlariga moslashishini ta'minlash muhim ahamiyatga ega.

Kelgusida ham rivojlangan mamlakatlar tajribalari chuqur o'rganilib, mamlakatimizga xos xususiyatlar, qadriyatlar, sharoitlar inobatga olingan holda kadrlar tayyorlash tizimini tubdan modernizatsiya qilishimiz lozim. Hozir oliy va o'rta maxsus ta'lismazirligi tomonidan malaka oshirish, chet el professorlarini O'zbekistonga olib kelib ma'ruza o'qitish, bakalavr va magistr dasturlarini rivojlangan mamlakatlardagi o'quvdasturlariga yaqinlashtirish ishlari olib borilmoqda. Ularning darsliklari, o'quv standartlari tajriba sifatida qo'llanilmoqda. Bu albatta, yaxshi tashabbus va shu sohadagi ishlarni yanada rivojlantirishimiz lozim. Oliy ta'lismuassasalarida ta'limgani rivojlantirish, ta'lismifatini ta'minlash va nazorat qilish borasida xorijiy mamlakatlar (Yaponiya, Germaniya, Angliya, Frantsiya, Shvetsiya, AQSh)ning tajribalari O'zbekiston oliy ta'litmizidagi holatlar bilan qiyosiy tahlil qilinishi lozim. Bu o'rinda ilg'or mamlakatlarning oliy o'quvdargohlari bilan xalqaro ilmiy-pedagogik aloqalarni rivojlantirish, xalqaro ta'lismasturlarida ishtirok etish, xalqaro loyiha va dasturlarda qatnashish uchun buyurtmalar berish, mamlakat ilm-fanining xalqaro ilmiy



hamjamiyatga qo'shilishini faollashtirish maqsadida olimlar va pedagoglar bilan o'zaro fikr almashinuv jarayonini kuchaytirish lozim<sup>9</sup>.

### Adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. "Milliy taraqqiyot va yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz". 1-jild. – T.: «O'zbekiston» 2017, 145-146-b.
2. Mirziyoyev Sh.M. "2017-2021yillarda maktabgacha ta'lif tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi qarori 2016 yil 26 dekabr.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 08.10.2019 yildagi PF-5847-son. O'zbekiston Respublikasi oliv ta'lif tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi.
4. <https://elib.buxdu.uz/index>.



<sup>9</sup> R. Qulmatov. Ta'lif tizimi: muammo va yechimlar. Internet ma'lumotlari.